

I.SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 3 778 taga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 402 ta yoki 11,9 foizga oshgan.


Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 569 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ularning 15,6 foizi Uchquduq tumani, 13,4 foizi Karmana tumani, 13,0 foizi Navoiy shahri, 12,0 foizi Xatirchi tumani, 10,7 foizi Zarafshon shahri hissalariga to'g'ri keldi.




2022- yil 1- iyul holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

	<i>faoliyat yuritayotgan</i>	<i>shundan,</i>		<i>2022- yil yanvar- iyun oylarida tashkil etilgan</i>
		<i>yirik korxonalar</i>	<i>kichik biznes</i>	
Jami	3 778	26	3 747	569
Navoiy sh.	815	13	802	74
Zarafshon sh.	356	-	352	61
G'ozg'on sh.	183	-	183	28
Karmana t.	632	6	626	76
Konimex t.	127	1	126	31
Qiziltepa t.	418	3	415	55
Navbahor t.	272	2	269	46
Nurota t.	262	-	262	23
Tomdi t.	87	-	87	18
Uchquduq t.	151	-	151	89
Xatirchi t.	475	1	474	68

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2022- yil 1- iyul holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2022- yil yanvar- iyun)



2022- yil yanvar- iyun oylarida sanoat mahsuloti hajmi 41 679,6 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati) 106,5 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 2 141,2 mlrd. soʻmlik isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2021- yil yanvar- iyungacha nisbatan oʻsish surʼati 109,3 foizni tashkil etdi.

Jumladan, 870,5 mlrd. soʻmlik oziq-ovqat mahsulotlari, aroq-vino mahsulotlari va pivo, 1 270,7 mlrd. soʻmlik nooziq-ovqat mollari (2021- yil yanvar- iyungacha nisbatan mos ravishda 104,3 foiz va 113,1 foiz) ishlab chiqarildi.



2022- yil yanvar- iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati, % da)</i>
I. Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari boʻyicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	41 679,6	106,5
Togʻ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	5 925,6	138,8
<i>ulardan:</i>		
Metall rudalarini qazib olish	5 689,1	138,1
Boshqa turdagi togʻ-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	236,5	2,5 m.
Qayta ishlash sanoati	33 465,0	101,9
<i>undan:</i>		
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	897,6	91,3
Toʻqimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1 037,5	85,3
Yogʻoch va poʻkak buyumlar, pohl va toʻqish uchun materiallardan buyumlari, qogʻoz va qogʻoz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	54,6	135,6
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	5,3	122,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,9	2,3 m.
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	2 673,2	92,0
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	6,3	122,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	916,9	67,1
Metallurgiya sanoati	25 509,3	103,9
Mashina va uskunalardan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	1 500,7	111,6

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)</i>
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	88,3	139,0
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	80,3	84,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	361,7	3,9 m.
Avtotransport vositalari, treylar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	299,6	164,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	7,6	53,4
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	25,2	87,9
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	2 264,6	123,8
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	24,4	89,6
II. Iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish	2 141,2	109,3
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	870,5	104,3
nooziq-ovqat tovarlari	1 270,7	113,1

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi ulushi, foizda



Yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 141,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 9,3 foizga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,1 foizni tashkil etdi.



Yanvar- iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi (jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)

2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun
Ulushi , % da	Ulushi , % da
41,7	40,7
58,3	59,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	Nooziq-ovqat mahsulotlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar- iyun</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Chaqiq tosh (sheben)	<i>tn.</i>	16 642,5	75,8
Qayta ishlash sanoati			
Ammoniy sulfat	<i>ming. tn. azot</i>	1,7	102,6
Natriy gidroksidi (kaustik soda)	<i>ming. tn.</i>	30,4	70,6
Kalsiy xlorid	<i>ming. tn.</i>	3,0	2,7 m.
Ammoniy nitrat (ammoniyli selitra)	<i>ming. tn. azot</i>	150,3	126,9
Superfosfatlar	<i>ming. tn. P2O5</i>	0,8	75,7
Mochovina (karbamid)	<i>ming. tn. azot</i>	119,6	146,4
Suvsiz ammiak	<i>ming. tn</i>	385,8	130,0
Portlandsement	<i>tn.</i>	1 443 120,0	77,3
Sirka kislotasi	<i>tn.</i>	2 240,0	113,5
Sement, beton yoki sun'iy toshdan qurilish uchun g'isht va bloklar	<i>tn.</i>	23 677,5	29,0
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar	<i>tn.</i>	2 796,9	110,6
Yogurt	<i>tn.</i>	4,9	147,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>ming. tn.</i>	31,9	99,1
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g (buxanka)	<i>tn.</i>	166,9	72,4
Ishlov berilgan suyuq sut	<i>tn.</i>	304,6	66,9
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	<i>tn.</i>	28,1	62,8
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, tarkibida asal, tuxum, pishloq yoki mevalar bo'lmagan uzoq saqlanmaydigan boshqa non mahsulotlari	<i>tn.</i>	295,7	95,9



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2022- yil yanvar- iyun oylarida 1 359,1 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

	<i>2021- yil yanvar- iyun</i>	<i>2022- yil yanvar- iyun</i>
Loyihalar soni, birlik	196	243
Korxonalar soni, birlik	56	61
Ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm	849 210,9	1 359 107,2
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming. AQSH doll.	9 993,1	6 194,9
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	111	166






2022- yil yanvar- iyun oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

	<i>Sanoat mahsuloti</i>		<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Jami sanoatdagi kichik biznes ulushi, % da</i>
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati, % da)</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	
Jami	41 679,6	106,5	2 141,2	109,3	6,6
Navoiy sh.	35 596,0	107,1	465,3	92,5	1,7
Zarafshon sh.	175,7	105,0	149,0	109,4	99,2
G'ozg'on sh.	33,1	109,0	13,0	104,0	100,0
Karmana t.	4 097,6	110,2	547,7	131,5	18,9
Konimex t.	251,8	115,8	48,1	105,4	41,3
Qiziltepa t.	592,2	91,0	278,1	105,6	48,6
Navbahor t.	347,3	104,7	175,6	121,1	47,3
Nurota t.	151,1	108,1	137,1	115,6	100,0
Tomdi t.	23,3	105,8	21,7	108,1	100,0
Uchquduq t.	144,1	116,8	49,2	102,7	100,0
Xatirchi t.	267,4	103,0	256,4	102,6	99,4

Uchquduq tumanida (2021- yilning yanvar- iyun oyiga nisbatan 116,8 foiz), Konimex tumanida (115,8 foiz), Karmana tumanida (110,2 foiz), G'ozg'on shahrida (109,0 foiz) hamda Navoiy shahrida (107,1 foiz) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) viloyat ko'rsatkichidan (106,5 foiz) sezilarli darajada oshganligini izohlashimiz mumkin.

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Karmana tumanida (2021- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan 131,5 foiz), Navbahor tumanida (121,1 foiz), Nurota tumanida (115,6 foiz) hamda Zarafshon shahrida (109,4 foiz) sezilarli darajada oshdi.






2022- yil yanvar- iyun oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hamda xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish

	Sanoat mahsulotlari, ming so'm		Xalq iste'mol mollari, ming so'm	
	2021	2022	2021	2022
Jami	34 354,4	40 116,9	1 924,0	2 060,9
Navoiy sh.	202 376,0	234 293,4	3 408,5	3 062,7
Zarafshon sh.	1 766,3	2 047,1	1 600,7	1 736,4
G'ozg'on sh.	2 479,3	3 694,4	1 413,1	1 444,7
Karmana t.	26 635,5	30 783,2	3 224,8	4 114,4
Konimex t.	1 341,5	6 820,3	1 256,1	1 303,0
Qiziltepa t.	4 333,8	3 768,1	1 704,2	1 769,7
Navbahor t.	2 637,8	2 961,6	1 258,9	1 497,6
Nurota t.	1 407,8	1 737,8	1 386,4	1 577,0
Tomdi t.	1 279,7	1 499,5	1 315,2	1 392,0
Uchquduq t.	2 097,5	3 736,8	1 267,6	1 276,8
Xatirchi t.	1 184,4	1 293,4	1 232,2	1 240,2


2022- yil yanvar-iyun



2022- yil yanvar- iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so‘m



2022- yil yanvar- iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so‘m



2022- yil yanvar- iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumaniga (4 114,4 ming soʻm), Navoiy shahriga (3 062,7 ming soʻm), Zarafshon shahriga (1 736,4 ming soʻm), Nurota tumaniga (1 577,0 ming soʻm) Qiziltepa tumaniga (1 769,7 ming soʻm), Navbahor tumaniga (1 497,6 ming soʻm) va Gʻozgʻon shahriga (1 444,7 ming soʻm) toʻgʻri keladi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 404,3 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.



Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 5,9 foizni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 5,8 foizni tashkil etdi.

	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish		shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda	
	mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati), % da	mlrd. soʻm	Ulushi, % da
Jami	41 679,6	106,5	2 404,3	5,8
Navoiy sh.	35 596,0	107,1	224,7	0,6
Zarafshon sh.	175,7	105,0	43,2	24,5
Gʻozgʻon sh.	33,1	109,0	0,4	1,3
Karmana t.	4 097,6	110,2	1 859,6	45,4
Konimex t.	251,8	115,8	0,5	0,2
Qiziltepa t.	592,2	91,0	253,7	42,8
Navbahor t.	347,3	104,7	16,6	4,8
Nurota t.	151,1	108,1	4,8	3,2
Tomdi t.	23,3	105,8	-	-
Uchquduq t.	144,1	116,8	0,1	0,1
Xatirchi t.	267,4	103,0	0,7	0,3

Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da


2021- yil yanvar- iyun

2022- yil yanvar- iyun



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2 740,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 6,6 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm



2022- yil yanvar- iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100 foiz), Tomdi (100,0 foiz), G'ozg'on shahri (100,0 foiz), Nurota (100,0 foiz), Xatirchi (99,4 foiz), Zarafshon shahri (99,2 foiz), Qiziltepa (48,6 foiz), Navbahor (47,3 foiz), Konimex (41,3 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy shahrida (1,7 foiz), Karmana tumanida (18,9 foiz) kuzatildi.

Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi - korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeklari - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Iste'mol mollari - asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi - boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Mahalliyashtirish darajasi - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).